
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Homiladorlik va tug'ish bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqalari qancha muddatga beriladi?

Javob: Homiladorlikning o'ttizinchi haftasidan ilgari tug'ish holatlarida mehnatga layoqatsizlik varaqasi tug'ruq muassasasi tomonidan bola tug'ilgan kundan boshlab quyidagi muddatlarga beriladi:

bola tirik tug'ilganda — bir yuz yigirma olti kalendar kunga;

bola o'lik tug'ilgan yoki tug'ruq muassasasidan chiqqunga qadar nobud bo'lganda — yetmish kalendar kunga.

Homiladorlikning o'ttizinchi haftasidan keyin murojaat qilinganda tug'ishga qadar necha kun qolganidan qat'i nazar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi murojaat qilgan kundan to'liq bir yuz yigirma olti kalendar kuniga beriladi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-02-27 17:58:47